



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI.....	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODELI.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	208
Egamov Temur Muzaffarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI.....	217
Achilova Firuza Kurbanovna	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	222
Ergashev Olim	



KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR	227
Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	233
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA AKSIYADORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	238
Xakimov Uchkun Xamitovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY MAKROIQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	242
Mardanova Ra'no Isakovna	
XUSUSIY VA DAVLAT SHIFOXONALARI UCHUN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI QIYOSIY TAHLIL	246
Yakubov Temur G'anibekovich	
RAQAMLI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURS SAMARADORLIGI VA IQTISODIY NATIJADORLIK MODEL	250
Ziyodullayev Qahramon	
"MILLIY TURIZM SITUATSION-MONITORING MARKAZI" VA "YASHIL TUROPERATORLAR" FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI	254
Toshev Akmal Salimovich	
RISK-MENEJMENT VA MOLIYAVIY BARQARORLIK O'ZARO BOG'LIQLIGINING KONSEPTUAL MODELINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	261
Madaminov Bekzod Allayarovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT: BAHOLASH METODOLOGIYASI, DINAMIKASI VA QISQARTIRISH ISTIQBOLLARI (1996 – 2026-YILLAR TAHLILI)	266
Djumanova Rano Fayzullayevna	
OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA MAJMUALI DIAGNOSTIK MODELNING AMAL QILISH XUSUSIYATLARI	272
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	278
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	282
Nigora Nurmatova	
BANK SEKTORINING INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISHDAGI STRATEGIK O'RNI	287
Abdumavlonov Abdumutal Abdumajid o'g'li	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY INVESTITSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	291
Allabergenova Nilufar Shermetovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA TA'MINOTLI YIRIK KREDITLAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQRISH ORQALI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI	298
Ahmedov Akbarali Sultonmurodovich	
"MINTAQA SANOATI SALOHİYATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI"	306
Abdinazarov Xusan Shaymanovich	
BUDJET TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MAJBURIYATLAR: MAZMUNI, TURLARI VA TARKIBI	309
Jabbarova Charos Aminovna	
ATROF-MUHIT VA EKOLOGIK IQTISODIYOT: TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	316
Alikulov Samar Abdirashidovich	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASI RIVOJLANISHIDA FORSAYT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH	322
Turdibekov Xasan Ibragimovich	
АНАЛИЗ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩЕГО СУБЪЕКТА	329
Камолова Феруза Кахрамоновна	



TASHQI QARZNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI: QARZ BARQARORLIGINI BAHOLASH MODELLARI ASOSIDA O'ZBEKISTON MISOLIDA TAHLIL	333
Oliyeva Kumushoy Ahmad qizi, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLARNI TARTIBGA SOLISHNING TAHLILI	339
Kudiyarov Kishibay Ramatullaevich	
KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORI TAJIRIBASI	343
Iminova Nargizaxon Akramovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING TO'LOVGA QOBILIVATLILIGINI BOSHQARISHDA RISK VA RISK-MENEJMENTNING O'RNI	350
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA KAMCHILIKLAR	354
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Xasanboyeva Muyassar Ubaydullayevna	
XUSUSIY KORXONALARDA KADRLAR MENEJMENTI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	358
Alimova Dildora Damirovna	
BANK TRANSFORMATSIYASI TUSHUNCHASI VA UNING MENEJMENTDAGI O'RNI	363
Rajabov Oybek Panjievich	
O'ZBEKISTON OZIY-OVQAT SANOATIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	367
Eshtemirova Anora Norboy qizi	
BOZOR KONYUNKTURASIGA MOS PIYOZ YETISHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	371
Sadikova Shohida Obidqul qizi	
HUDUDLARDA MAISHIY XIZMATLAR SOHASINI KLASTERTASH VA RESURS SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	375
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna	
XUSUSIY VA KORPORATIV TUZILMALARDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI HAMDA AUDITORLIK XULOSASINI SHAKLLANTIRISH AMALIYOTI	380
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	
YIRIK VA KICHIK BIZNES O'RTASIDA KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	385
Nasirova Kamola Alimovna	
MOLIVAVIY HISOBOTLARNING QAROR QABUL QILISH JARAYONIDAGI IQTISODIY ROLI	394
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Yahyayeva Ra'no Raximovna	

MOLIYAVIY HISOBOTLARNING QAROR QABUL QILISH JARAYONIDAGI IQTISODIY ROLI



Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich

Namangan davlat texnika universiteti dotsenti,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

xulugbek1984@gmail.com

ORCID: 0000-0002-3589-373X



Yahyayeva Ra'no Raximovna

Namangan davlat texnika universiteti,
Buxgalteriya hisobi kafedrası magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy hisobotlarning qaror qabul qilish jarayonidagi iqtisodiy roli nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida moliyaviy hisobotlarning axborot manbai sifatidagi ahamiyati, turli toifadagi qaror qabul qiluvchilar faoliyatida tutgan o'rnini hamda strategik, taktik va operativ qarorlar qabul qilishdagi ta'siri tahlil qilingan. Moliyaviy hisobot axborotining sifat ko'rsatkichlari qaror qabul qilish samaradorligiga qanday ta'sir etishi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, moliyaviy hisobotlar orqali axborot asimmetriyasini kamaytirish va iqtisodiy risklarni baholash imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Maqolada moliyaviy hisobotlarning qaror qabul qilish jarayonida universal va tizimli axborot vositasi ekanligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot nazariyasini rivojlantirish hamda amaliy qarorlar qabul qilish jarayonini takomillashtirishda ahamiyatli hisoblanadi.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, qaror qabul qilish, iqtisodiy axborot, axborot manbai, hisobot foydalanuvchilari, strategik qarorlar, moliyaviy tahlil, axborot asimmetriyasi, buxgalteriya hisobi.

Abstract. This article theoretically examines the economic role of financial reporting in the decision-making process. The study analyzes the importance of financial reporting as a source of information, its role in the activities of different categories of decision-makers, and its impact on strategic, tactical, and operational decision-making. The influence of qualitative characteristics of financial information on decision-making effectiveness is scientifically substantiated. In addition, the paper highlights the role of financial reporting in reducing information asymmetry and assessing economic risks. It is argued that financial reporting serves as a universal and systematic information tool in the decision-making process. The findings contribute to the development of accounting and financial reporting theory and to the improvement of practical decision-making processes.

Key words: financial reporting, decision-making, economic information, information source, users of financial statements, strategic decisions, financial analysis, information asymmetry, accounting.



Аннотация. В данной статье теоретически исследуется экономическая роль финансовой отчетности в процессе принятия решений. В рамках исследования проанализирована значимость финансовой отчетности как источника информации, ее роль в деятельности различных категорий пользователей, а также влияние на принятие стратегических, тактических и оперативных решений. Научно обосновано влияние качественных характеристик финансовой информации на эффективность управленческих решений. Кроме того, раскрыты возможности снижения информационной асимметрии и оценки экономических рисков посредством финансовой отчетности. В статье доказано, что финансовая отчетность выступает универсальным и системным информационным инструментом в процессе принятия решений. Результаты исследования имеют значение для развития теории бухгалтерского учета и финансовой отчетности, а также для совершенствования практики принятия управленческих решений.

Ключевые слова: финансовая отчетность, принятие решений, экономическая информация, источник информации, пользователи отчетности, стратегические решения, финансовый анализ, информационная асимметрия, бухгалтерский учет.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy subyektlar faoliyatining samaradorligi qabul qilinayotgan qarorlarning asoslanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Qaror qabul qilish jarayoni tasodifiy emas, balki aniq, tizimli va ishonchli axborotga tayangan holda amalga oshiriladi. Mazkur axborot tizimida moliyaviy hisobotlar alohida o'rin tutadi, chunki ular korxonaning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari hamda pul mablag'lari harakati to'g'risida umumlashtirilgan va tizimlashtirilgan ma'lumotlarni taqdim etadi [1].

Iqtisodiy munosabatlar tobora murakkablashib borayotgan hozirgi sharoitda qaror qabul qiluvchilar — investorlar, kreditorlar, menejerlar va davlat organlari uchun moliyaviy hisobot axborotining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Moliyaviy hisobotlar nafaqat joriy holatni aks ettiradi, balki kelgusidagi iqtisodiy qarorlarni shakllantirishda ham muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi. Shu bois moliyaviy hisobotlarning qaror qabul qilish jarayonidagi o'rnini nazariy jihatdan chuqur tahlil qilish va ularning iqtisodiy ahamiyatini aniqlashtirish ilmiy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot moliyaviy hisobotlarning qaror qabul qilish jarayonidagi iqtisodiy roli hamda funksional ahamiyatini kompleks tarzda ochib berishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy hisobotlarning qaror qabul qilish jarayonidagi o'rni va iqtisodiy ahamiyati buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy tahlil nazariyasining muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar moliyaviy hisobotlarni nafaqat xo'jalik faoliyati natijalarini aks ettiruvchi hujjat, balki iqtisodiy qarorlarni asoslashga xizmat qiluvchi strategik axborot manbai sifatida talqin etadi.

Moliyaviy hisobotlarning qaror qabul qilishdagi ahamiyatiga oid nazariy yondashuvlarning shakllanishi klassik buxgalteriya nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, unda hisobotlar investorlar va kreditorlar ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan axborot tizimi sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, moliyaviy hisobotlarning asosiy vazifasi xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati va faoliyat natijalari to'g'risida ishonchli hamda taqqoslanadigan axborotni taqdim etishdan iboratdir [1]. Keyinchalik ushbu qarashlar moliyaviy hisobotlarning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi funksional rolini yanada chuqurroq ochib beruvchi nazariyalar bilan boyitildi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda moliyaviy hisobotlar qaror qabul qilish jarayonining axborot infratuzilmasi sifatida talqin qilinadi. Xususan, moliyaviy hisobotlar axborot asimetriyasini kamaytirish, bozor ishtirokchilari o'rtasida ishonchni mustahkamlash hamda resurslarni samarali taqsimlashga xizmat qiluvchi institutsional mexanizm ekanligi ta'kidlanadi [2]. Ushbu yondashuv moliyaviy hisobotlarning nafaqat o'tmish natijalarini aks ettiruvchi hujjat, balki kelgusidagi iqtisodiy qarorlar uchun mustahkam asos bo'luvchi axborot manbai ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Xalqaro tadqiqotlarda moliyaviy hisobot axborotining sifat ko'rsatkichlari — dolzarblik, ishonchli taqdim etish, taqqoslanish va tushunarliklik — qaror qabul qilish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi isbotlangan [3]. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, sifatsiz yoki to'liq ochib berilmagan moliyaviy axborot investorlar va kreditorlar tomonidan risklarning noto'g'ri baholanishiga olib kelishi mumkin, bu esa iqtisodiy qarorlarning samaradorligiga salbiy ta'sir etadi.

Moliyaviy hisobotlardan foydalanadigan foydalanuvchilar guruhlar bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu axborotning turlicha talqin qilinishini ko'rsatadi. Investorlar moliyaviy hisobotlarni asosan rentabellik va kapital qiymatini baholash uchun qo'llasa, kreditorlar likvidlik va to'lovga qobiliyatlik ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratadi. Menejment esa moliyaviy hisobotlarni strategik va taktik boshqaruv qarorlarini asoslash vositasi



sifatida talqin qiladi [4]. Bu holat moliyaviy hisobotlarning universal axborot manbai ekanligini, biroq ularning amaliy qo'llanilishi foydalanuvchilarning manfaatlari va maqsadlariga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham moliyaviy hisobotlarning qaror qabul qilish jarayonidagi roli keng yoritilgan. O'zbekiston sharoitida moliyaviy hisobotlarning investitsion jozibadorlikni oshirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda boshqaruv qarorlarining iqtisodiy asoslanganligini ta'minlashdagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi [5]. Shu bilan birga, ayrim ilmiy ishlarda hisobotlarning haddan tashqari soliq yo'naltirilganligi ularning boshqaruv va investitsion qarorlar uchun axborot qiymatini cheklashi mumkinligi konstruktiv tarzda qayd etiladi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) bag'ishlangan tadqiqotlar esa hisobotlarni standartlashtirish va shaffoflikni oshirish orqali qaror qabul qilish sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotlarda xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlar axborot asimmetriyasini kamaytirishi va kapital bozorlarida ishonchni mustahkamlashi ilmiy dalillar bilan asoslab berilgan [6].

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar moliyaviy hisobotlarning qaror qabul qilish jarayonida passiv axborot manbai emas, balki iqtisodiy xatti-harakatlarga bevosita ta'sir etuvchi faol instrument ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, moliyaviy hisobotlarning qaror qabul qilishdagi samaradorligi ularning sifati, axborotni ochib berish darajasi hamda foydalanuvchilarning tahliliy kompetensiyasiga bevosita bog'liq ekani aniqlanadi [7]. Mazkur holat tadqiqot mavzusining ilmiy va amaliy dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda moliyaviy hisobotlarning qaror qabul qilish jarayonidagi iqtisodiy rolini aniqlash maqsadida umumilmiy hamda maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarga oid xorijiy va milliy ilmiy adabiyotlar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil usuli orqali moliyaviy hisobotlarning axborot manbai sifatidagi ahamiyati chuqur o'rganildi. Taqqoslama tahlil yordamida turli foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobot axborotining qaror qabul qilishdagi o'rnini baholandi. Shuningdek, mantiqiy tahlil, induksiya va deduksiya usullari asosida mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirilib, asosli xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, ilmiy nashrlar, shuningdek rasmiy statistik va normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi. Qo'llanilgan metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi hamda amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy hisobotlarning qaror qabul qilishda axborot manbai sifatidagi ahamiyatli. Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy hisobotlar qaror qabul qilish jarayonida eng muhim va tizimli axborot manbalaridan biri hisoblanadi. Chunki moliyaviy hisobotlar korxona faoliyatining moliyaviy natijalari, moliyaviy holati hamda pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirib, qaror qabul qiluvchilarga iqtisodiy vaziyatni xolis va nisbatan to'liq baholash imkonini beradi [3]. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida axborot asimmetriyasi (korxona rahbariyati bilan tashqi foydalanuvchilar o'rtasidagi axborot tengsizligi) mavjud bo'lgan sharoitda moliyaviy hisobotlar ushbu tafovutni kamaytirishga xizmat qiluvchi muhim institutsional vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bunday holatda moliyaviy hisobotlar nafaqat hisob-kitob natijasi, balki iqtisodiy qarorlarni asoslashga xizmat qiladigan axborot infratuzilmasining ajralmas elementi sifatida talqin etiladi.

Moliyaviy hisobot axboroti qaror qabul qilish jarayonida quyidagi yo'nalishlarda amaliy ahamiyat kasb etadi:

- investitsiya yo'nalishlarini tanlash (korxona qiymati, foyda keltirish salohiyati, risk va rentabellikni baholash);
- kredit ajratish bo'yicha qaror qabul qilish (likvidlik, to'lov qobiliyati, qarz yuklamasi va pul oqimlarining barqarorligini tahlil qilish);
- korxona rivojlanish strategiyasini belgilash (daromad manbalari, xarajatlar tuzilmasi hamda kapital qo'yilmalar samaradorligini baholash);
- moliyaviy risklarni baholash va boshqarish (foiz, valyuta, likvidlik, kredit risklari hamda moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish).

Mazkur jihatdan moliyaviy hisobotlar qaror qabul qilish jarayonida tahliliy funksiyani ham bajaradi: hisobot ko'rsatkichlari asosida moliyaviy koeffitsientlar hisoblanadi, dinamik tendensiyalar aniqlanadi va muqobil qarorlarning samaradorligi qiyosiy baholanadi. Shuningdek, hisobot axborotining dolzarblik va ishonchli taqdim etish kabi sifat ko'rsatkichlari qarorlarning asoslanganligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Axborot o'z vaqtida va to'liq taqdim etilganda qaror qabul qilish jarayoni yanada samarali va puxta bo'ladi [3] [1-jadval].



1-jadval. Moliyaviy hisobotlar asosida qaror qabul qiluvchilar va ularning maqsadlari

Qaror qabul qiluvchi	Qaror mazmuni	Asosiy ko'rsatkichlar
Investorlar	Kapital qo'yish	Foyda, rentabellik
Kreditorlar	Qarz berish	Likvidlik, barqarorlik
Menejment	Rivojlanish strategiyasi	Daromad, xarajat
Davlat organlari	Tartibga solish	Soliq va moliyaviy ma'lumotlar

1-jadval moliyaviy hisobotlarning qaror qabul qilish tizimida foydalanuvchilar segmentatsiyasini hamda har bir segmentning axborotga nisbatan ustuvor talablarini aks ettiradi. Avvalo, investorlar moliyaviy hisobotlar asosida korxonaga kiritilgan kapitalning daromadlilik darajasini baholaydilar. Bunda sof foyda, aktivlar va kapital rentabelligi, dividend salohiyati kabi ko'rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlari sharoitida investorlarning qarorlari, asosan, hisobotda aks ettirilgan foyda va kapital to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchligi hamda ochiqqligi bilan belgilanadi [4].

Kreditorlar uchun moliyaviy hisobotlar, eng avvalo, qarzni qaytarish imkoniyatini baholash vositasi hisoblanadi. Shu bois likvidlik koeffitsientlari, qarz va kapital nisbati, pul oqimlarining barqarorligi kabi ko'rsatkichlar ustuvor ahamiyatga ega. Agar hisobotlarda majburiyatlar real iqtisodiy mazmunda to'liq aks ettirilmasa yoki pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlar yetarlicha ochib berilmasa, kreditorlar riskni aniq baholashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Natijada kredit qarorlarining samaradorligi pasayishi ehtimoli yuzaga keladi [4].

Menejment moliyaviy hisobotlardan strategik va taktik boshqaruv qarorlarini asoslashda foydalanadi. Ular daromad va xarajalar tuzilmasini, resurslardan foydalanish samaradorligini hamda segmentlar bo'yicha foydalilikni tahlil qiladi. Shu nuqtai nazardan, 1-jadvalda ko'rsatilgan "daromad" va "xarajat" indikatorlari boshqaruv qarorlarining moliyaviy asosini ifodalaydi. Menejment uchun hisobot axboroti nafaqat hisobot davri natijalarini, balki kelgusi rejalashtirish jarayonini ham ta'minlaydi.

Davlat organlari moliyaviy hisobotlardan makroiqtisodiy boshqaruv, fiskal siyosat va nazorat tadbirlarida foydalanadi. Soliq bazasini aniqlash, moliyaviy intizomni baholash hamda tarmoqlar kesimida iqtisodiy holatni tahlil qilishda hisobot ma'lumotlari muhim manba hisoblanadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda moliyaviy hisobotlar haddan tashqari soliqqa yo'naltirilgan shaklga aylanib qolmasligi, balki ularning investitsion va boshqaruv ahamiyati saqlab qolinishi zarurligi ta'kidlanadi [4].

Jadval tahlili umumiy xulosa sifatida shuni ko'rsatadiki, moliyaviy hisobotlar barcha toifadagi qaror qabul qiluvchilar uchun universal axborot manbai hisoblanadi. Biroq har bir toifa axborotni turli ko'rsatkichlar orqali talqin qiladi va turli natijaviy qarorlar qabul qiladi [4].

Qaror qabul qilish darajalari va moliyaviy hisobotlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, qaror qabul qilish jarayonini shartli ravishda strategik, taktik va operativ darajalarga ajratish mumkin. Ushbu tasnif qaror qabul qilishning vaqt oraligi, ta'sir doirasi va boshqaruv darajasi bilan izohlanadi. Har bir darajada moliyaviy hisobot axboroti turlicha ahamiyat kasb etadi hamda turli analitik instrumentlar bilan qo'llaniladi [5].

Strategik qarorlar (uzoq muddatli) – korxonaning istiqboldagi rivojlanish yo'nalishi, investitsiya siyosati, kapital tuzilmasi, dividend siyosati hamda bozordagi raqobat strategiyasi bilan bog'liq. Ushbu darajada moliyaviy hisobotlar korxonaning barqarorligi, moliyaviy mustahkamligi va qiymat yaratish salohiyatini baholashga xizmat qiladi.

Taktik qarorlar (o'rta muddatli) – resurslarni qayta taqsimlash, xarajatlarni optimallashtirish, ishlab chiqarish va sotuv rejalarini muvofiqlashtirish kabi masalalarni qamrab oladi. Bu jarayonda hisobot axboroti samaradorlikni oshirish va rentabellikni nazorat qilish vositasi sifatida qo'llaniladi.

Operativ qarorlar (qisqa muddatli) – kundalik yoki oylik moliyaviy intizomni ta'minlash, pul oqimlaridagi uzilishlarning oldini olish hamda qisqa muddatli majburiyatlarni boshqarish bilan bog'liq. Bunda pul oqimlari, likvidlik va debitor-kreditor hisob-kitoblari bo'yicha tezkor va aniq axborot muhim ahamiyatga ega [2-jadval].

2-jadval. Qaror qabul qilish darajalarida moliyaviy hisobotlarning roli

Qaror turi	Davriylik	Moliyaviy hisobotning vazifasi
Strategik	Uzoq muddat	Barqarorlikni baholash
Taktik	O'rta muddat	Samaradorlikni oshirish
Operativ	Qisqa muddat	Nazorat va joriy tahlil



2-jadval moliyaviy hisobot axborotining boshqaruv qarorlari ierarxiyasidagi (strategik–taktik–operativ) funksional o'rnini tizimlashtiradi.

Birinchidan, jadvaldagi “davriylik” ko'rsatkichi qaror qabul qilishda axborotga bo'lgan ehtiyojning vaqt jihatidan farqlanishini anglatadi. Masalan, strategik qarorlarda moliyaviy hisobotlar odatda bir necha yillik dinamik tahlil (trend), kapital tuzilmasi hamda rentabellikning uzoq muddatli prognozlari asosida baholanadi. Bu yerda “barqarorlikni baholash” vazifasi korxonaning moliyaviy mustahkamligi, moliyaviy leverage darajasi, bozor risklariga moslashuvchanligi kabi indikatorlar orqali izohlanadi [5].

Ikkinchidan, taktik qarorlarda moliyaviy hisobotlar “samaradorlikni oshirish” funksiyasini bajaradi. Ya'ni, hisobot axboroti asosida xarajatlar tuzilmasi, rentabellik markazlari, mahsulot yoki xizmat segmentlari bo'yicha foydalilik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Ushbu bosqichda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning (profit and loss statement) tahliliy imkoniyatlari yanada kengroq namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, operativ qarorlarda hisobot axboroti “nazorat va joriy tahlil” vazifasini bajaradi. Bunda faqat klassik yillik moliyaviy hisobot bilan cheklanilmaydi. Operativ boshqaruv uchun pul oqimlari hisobotining elementlari, qisqa muddatli likvidlik ko'rsatkichlari, kassaviy rejalashtirish ma'lumotlari hamda debitor-kreditor qarzar dinamikasi kabi tezkor axborot zarur hisoblanadi.

Shunday qilib, 2-jadval mazmuni moliyaviy hisobotlar qaror qabul qilish jarayonida turli darajalarda turli vazifalarni bajarishini, ya'ni bir xil axborot bazasidan turlicha analitik maqsadlarda foydalanilishini ilmiy jihatdan asoslaydi [5].

Jadvaldan kelib chiqadigan muhim xulosa shundan iboratki, qaror qabul qilish samaradorligi moliyaviy hisobotning mavjudligi bilan emas, balki uning maqsadga yo'naltirilgan va sifatli talqin qilinishi bilan belgilanadi. Shu bois moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda axborot sifati — dolzarblik, ishonchli taqdim etish va taqqoslanish —ni oshirish hamda foydalanuvchilar uchun izoh va ochib berish (disclosure) darajasini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Olingan natijalar moliyaviy hisobotlarni qaror qabul qilish jarayonida faqat passiv axborot manbai sifatida emas, balki qarorlarning asoslanganligiga bevosita ta'sir etuvchi faol instrument sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlar qaror qabul qilish uchun yuqori sifatli va taqqoslanadigan axborotni taqdim etadi [6].

Shu bilan birga, qaror qabul qilish samaradorligi nafaqat hisobot mavjudligiga, balki uning sifat ko'rsatkichlariga, ochiqlik darajasiga va foydalanuvchilarning tahliliy kompetensiyasiga ham bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi [7]. Bu esa moliyaviy hisobotlarni takomillashtirishni uzluksiz va tizimli jarayon sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari moliyaviy hisobotlar qaror qabul qilish jarayonida asosiy iqtisodiy axborot manbai ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Ular qarorlarning asoslanganligi, iqtisodiy samaradorligi va risk darajasini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy hisobotlar orqali iqtisodiy subyektning moliyaviy holati, natijalari va pul oqimlari tizimli ravishda baholanadi hamda strategik, taktik va operativ qarorlar uchun zarur axborot shakllantiriladi.

Shu bois quyidagi yo'nalishlarda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- moliyaviy hisobotlarning sifat ko'rsatkichlarini (dolzarblik, ishonchli taqdim etish, taqqoslanish va tushunarlilik) yanada oshirish;
- axborot ochiqligi va izohlar (disclosure) darajasini kengaytirish orqali foydalanuvchilar uchun tahliliy imkoniyatlarni kuchaytirish;
- xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida hisobotlarni takomillashtirish orqali axborot asimmetriyasini kamaytirish;
- foydalanuvchilarning moliyaviy tahlil kompetensiyasini oshirish va hisobotlardan samarali foydalanish madaniyatini rivojlantirish.

Moliyaviy hisobotlarni uzluksiz takomillashtirish va ularning shaffofligini ta'minlash bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsion jozibadorlikni oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda iqtisodiy qarorlar samaradorligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Deegan, C. Financial Accounting Theory. 5th ed. Sydney: McGraw-Hill Education, 2019.
2. International Accounting Standards Board (IASB). Conceptual Framework for Financial Reporting. London: IFRS Foundation, 2018.
3. Kieso, D. E., Weygandt, J. J., & Warfield, T. D. Intermediate Accounting. 17th ed. Hoboken, NJ: Wiley, 2020.
4. Elliott, B., & Elliott, J. Financial Accounting and Reporting. 19th ed. London: Pearson Education, 2019.



5. White, G. I., Sondhi, A. C., & Fried, D. The Analysis and Use of Financial Statements. 4th ed. Hoboken, NJ: Wiley, 2018.
6. Beaver, W. H. Financial Reporting: An Accounting Revolution. 3rd ed. New York: Prentice Hall, 1998.
7. Healy, P. M., & Palepu, K. G. Information Asymmetry, Corporate Disclosure, and Capital Markets. *Journal of Accounting and Economics*, 31(1–3), 405–440, 2001.
8. Mashrabjonovna, X. D. O'qituvchi innovatsion salohiyatini rivojlantirish zamonaviy o'qituvchini shakllantirishning asosiy omili sifatida. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari, 2025, 63–66-betlar.
9. Dildora, X., Gulruh, O., & To'raxon, A. The Role of Teacher's Gesture in the Classroom. In: *International Conference on Interdisciplinary Science*, Vol. 2, No. 6, 2025, pp. 12–18.
10. Nazira, M. Kichik biznes va tadbirkorlikda marketingni qo'llash tendensiyalari. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(03), 44–50, 2024.
11. Кадилова, Х. Модели и тенденции развития формирующихся финансовых рынков. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 2(8), 2024.
12. Ишимбаев, Р. Н., & Холмирзаев, А. Х. Цифровизация малого и среднего предпринимательства в Узбекистане. *Экономика и социум*, 7(86), 304–307, 2021.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
